## Ish va o'qishni birga olib borish mumkinmi?

18 yoshdan katta bo`lgan, kunduzi o`qiydigan chet ellik studentlar o`qish paytidan bo`sh vaqtlari ishlashlari mumkin. Ish beruvchi bilan shartnoma tuzish uchun faqat davlat akkreditatsiyasidan o`tgan,Sankt-Peterburgda o` qishini tasdiqlaydigan oliy o`quv yurti yoki kollejdan ma` lumotnoma ko`rsatish talab etiladi.

## Sankt-Peterburgda mehnat huquqlarini himoya qilishni so'rab kimga murojaat qilish mumkin?

Mehnat muhojirlari uchun ishonch telefonlari Комитета по межнациональным отношениям и реализации миграционной политики:

8 812 241 46 77

Государственная инспекция труда:

git78.rostrud.ru   8 800 600 00 00   8 812 408 90 15

Уполномоченный по правам человека:

8 812 241 46 77   ombudsmanspb.ru

Прокуратура:

8 812 318 26 11   8 812 315 48 53   epp.genproc.gov.ru

Главное Следственное Управление Следственного комитета РФ:

8 812 571 00 40   8 812 570 66 71   spb.sledcom.ru

## Jamoat tashkilotlari

БФ «ПСП-фонд» (bepul huquqiy yordam):

8 953 141 31 09   8 812 337 57 85   vk.com/pspfond

## Foydali axborot resurslari

**migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru**

Комитета по межнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге ning muhojirlar uchun internet-resursi

**migrussia.ru**

huquqiy masalalar va moslashish uchun maslahatlar, foydali muloqot vositalari va bir necha tildagi axborot materiallari

**trudvsem.ru**

Минтруда РФ «Работа в России» ning bo`sh ish o`rinlari bazasi:

**онлайнинспекция.рф**   **rostrud.ru**

Федеральной службы по труду и занятости ning electron:

**sudrf.ru**

ГАС РФ «Правосудие» — Rossiyadagi sudlar bilan muloqot vositalari:

Ishga joylashishga oid batafsilroq:

ish beruvchi bilan shartnomalar tuzish haqida barafsilroq:

Mehnat huquqlari himoyasiga oid batafsilroq:

Разработка текста: **БФ «ПСП-фонд»**
Автор-составитель: **Якимов А. Н.**
Редактор: **Панич Б. Л.**
Дизайнер: **Костенко А. А.**
Тираж: **1500 экз.**

Буклет «Трудоустройство и защита трудовых прав» (на узбекском языке)

Изготовлено на средства субсидии Комитета по межнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге

Комитет по межнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге

БФ «ПСП-ФОНД»

# *Sankt-Peterburgga* xush kelibsiz!




# Ishga joylashish va mehnat huquqlarini himoya qilish

2022

## Qanday qilib to'ri ish izlash zarur?

Ishni rasmiy saytlardan izlang:

*Общероссийская база вакансий «Работа в России»:* trudvsem.ru

*Службы занятости Санкт-Петербурга:* r21.spb.ru

*Центр трудовых ресурсов Санкт-Петербурга:* gauctr.ru

*Горячая линия СПб ГАУ Центр трудовых ресурсов* 8 800 333 70 97

*Rossiyada 1 yildan ortiq ish stajiga ega bo`lganda osonlashtirilgan tartibda Rossiya fuqaroligini olishi mumkin bo`lgan 135 ta malakali mutaxassis kasbi ro`yxati:* www.garant.ru

## Xodim nimani bilishi zarur?

Vositachilarga murojaat etmang: ular sizga qalbaki hujjatlar tayyorlab berishlari yo sizni haq bermay, bepul ishlatishlari mumkin.

Rossiyada yollanma mehnat (mehnat munosabatlarini rasmiylashtirmasdan turib, ishchilarni boshqa tashkilotlarga jo'natish) taqiqlangan!

*Qonuniy xususiy bandlik agentliklari ro'yxati:* migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru

Sizga qancha va qaysi muddanlarda haq to'lashlarini aniq biling: mehnat shartnomasida ish haqi hajmi va uni to'lash shartlari ko'rsatilishi zarur.

Siz pulni bank kartangiz orqali yoki shaxsan buxgalteriyada olishingiz mumkin — imzo chekib va hisob-kitob varaqasini olib.

Har qanday to'lov hujjat bilan tasdiqlanishi zarur.

Imzolanayotgan har bir hujjatni diqqat bilan o'qing, uning nusxasini berishni talab eting: siz agar ularning mazmuni bilan rozi bo'lmasangiz, shartnoma va boshqa hujjatlarga imzo chekmaslik huquqiga egasiz.

Hujjatlaringizni hech kimga saqlash uchun bermang: hech kim sizning pasportingiz, ishlash uchun patent, sug'urta, mehnat shartnomasining sizdagi nusxasi va boshqa hujjatlaringizni saqlash uchun olib qo'yish huquqiga ega emas.

Hech kim sizning harakatlanish erkinligingizni cheklash, telefoningizni olib qo'yish va hokazo huquqqa ega emas.

Pasportni olib qo'yish va erkinlikni cheklash — jiddiy jinoyat: bu holda politsiyaga murojaat etish zarur!

Yordam uchun murojaat eting: politsiyaga, Prokuraturaga, Davlat mehnat nazoratiga, sudga, Inson huquqlari bo'yicha vakolatdorga, ijtimoiy tashkilotlarga.

## Chet ellik xodimning qanday huquqlari bor?

Mehnat huquqlari Mehnat kodeksi (ТК РФ). da yozilgan.

To'liq bandlikda bo'lgan xodimning ish haqi hajmi mehnatga haq to'lash hajmining eng kam miqdori (MPOT) dan past bo'lmasligi kerak.

Sankt- Peterburgda MPOT — oyiga 23 500 rubl.

Ish beruvchi mehnat muhofazasini nazorat etishi zarur — agar ishingizda mehnat sharoiti hayot va salomatlik uchun xavfli bo'lsa, tezda ishni to'xtating va Следственный комитет ga shikoyat qiling.

Ish kunining uzunligi — 8 soatdan ortiq emas

ish haftasiniki — 40 soat

Ish vaqtidan ortiqcha mehnat uchun qo'shimcha haq to'lanadi (ст.152, ст.153 и ст.154 ТК РФ ga muvofiq).

Jarimalar noqonuniy

Agar xodim o'z vazifasini bajarmasa, ish beruvchi yozma ogohlantirish, hayfsan berishi yoki belgilangan tartibda ishdan bo'shatishi mumkin, u sizni jarimaga tortish huquqiga ega emas (ст. 192 ТК РФ).

Sababini tushuntirmasdan ishdan chetlatish taqiqlangan: xodimga ishdan bo'shatish haqidagi buqruqni berishlari ishdan bo'shatilish haqida yozilgan mehnat daftarchasini qaytarishlari zarur (ст. 76 ТК РФ).

Har qanday ishga albatta haq to'lanadi: ish beruvchi hatto xodim bilan shartnomani rasmiylashtirmagan taqdirda ham ish vaqti yo bajarilgan ish uchun haq to'lashi shart (ст. 67.1 ТК РФ).

## Agar ish haqini to'lashmasa, nima qilmoq kerak?

Agar ish haqi berishni 15 kundan ko'proqqa kechiktirishsa, haq berilmagani munosabati bilan ishni to'xtatish huquqiga egasiz ( ч.2 ст.142 ТК РФ) — buning uchun ish beruvchiga ish haqi to'lanmasligi munosabati bilan erkin tarzda ishni to'xtatish borasida yozma ariza berishingiz zarur.

Ishga aloqador bo'lgan hujjatlar nusxasini berish to'g'risida ish beruvchiga yozma ariza bilan murojaat eting (ст. 62 ТК РФ) -masalan, shartnoma va hisob-kitob varaqalarini.

Agar 3 ish kuni davomida hujjatlar nusxalarini qo'lingizga olmasangiz — ish beruvchi ustidan Государственную инспекцию труда ga ariza yozing.

Ish beruvchiga ish haqidan qarzdorlik to'loviga oid norozilik bilan murojaat eting.

Norozilikni ko'rib chiqish paytida sizni ishdan bo'shatish huquqiga ega emaslar.

Ariza berayotgan vaqtda qo`lingizda ish beruvchining arizani olganligi sanasi haqida imzosi chekilgan va muhri bosilgan ariza nusxasi qolishi muhimdir.

Agar ish beruvchi shikoyatingizga javob bermasa, prokuratura yo sudga shikoyat bilan murojaat etmoq zarur. Jamoaviy murojaatlarning bir kishining murojaatiga qaraganda samarasi ko`proqdir.

Ish beruvchini qarzni to`lashga majbur etish mumkin — buning uchun mehnat munosabatlarini tasdiqlovchi hujjatlar bilan Государственную инспекцию труда в Санкт-Петербурге (ст.360.1 ТК РФ) ga ish haqi to` lanmaganligiga oid ariza bermoq zarur.

Xodim qoidabuzarlik haqida bilgan kundan boshlab 3 oygacha, ishdan bo`shatishga oid bahslar bo`yicha unga ishdan bo`shatilgani borasidagi buyruqning nusxasi yo mehnat daftarchasi qaytarib berilgan kundan boshlab 1 oy davomida sudga murojaat etish huquqiga ega (ст.392 ТК РФ).

Agar qarz 50 ming rubldan kam bo`lsa — hakamlik sudiga murojaat eting

Agar qarz ko`p bo`lsa – umumiy yurisdiktsiya sudlariga murojaat eting

Agar ish haqini 2 va undan ko`p oydan buyon to`lashmasa Следственный отдел Главного следственного управления Следственного комитета РФ по Санкт-Петербургу ga murojaat eting.